



UZGASTRADE AKSIYADORLIK JAMIYATI BUYRUQ

“25” avgust 2025 yil.

19-um- son

Toshkent sh.

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati xodimlari uchun Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi, komissiya tarkibi va uning nizomini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son qonuni ijrosini bajarilishini samarali tashkil qilish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

“UzGasTrade” AJ xodimlari uchun Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Nizom) 1-ilova;

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga

rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi komissiya to‘g‘risidagi nizom 2-ilova;

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risidagi nizomga amal qilish “UzGasTrade” AJning (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat deb yuritiladi) barcha xodimlari uchun majburiy hamda uning buzilishi qonun hujjalariга muvofiq intizomiy va boshqa turdagи javobgarlikka tortishga asos bo‘lib hisoblanadi.

3. Personalni boshqarish bo‘limi (B.Nurmatov) Komplayens-nazorati bo‘limi (S.Mirzamoydinov) bilan birgalikda Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risidagi nizom talablari har bir xodimga imzo orqali tanishtirilishi ta’milanib, imzo varaqalari Komplayens-nazorati bo‘limida jamlansin.

Bunda yangi ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs mazkur nizomlar bilan tanishtirilsin.

4. Boshqaruv raisi maslahatchisi (Sh. Nusharova) Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni Jamiatning rasmiy veb-saytida joylashtirish ishlari amalga oshirilsin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan **quyidagi**:

2023-yil 30-yanvardagi 4-um-son “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyruq **bekor qilinsin**.

6. Ijro nazorati bo‘lim boshlig‘i (A.Niyazmetov) ushbu buyruqni Jamiatning barcha bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Ushbu buyruq ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



A.T. Agzamov

“UzGasTrade” AJning
2025-yil “25” august
19-um--son buyrug‘iga 1-ilova

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida NIZOM

- 1-bob.** Umumiylar qoidalar.
- 2-bob.** Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish.
- 3-bob.** Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir choralar.
- 4-bob.** Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarini ko‘rib chiqish va tekshirish.
- 5-bob.** Yakunlovchi qoidalar.

1-bob. Umumiylar qoidalar

1. Ushbu Nizomning maqsadi va amal qilish sohasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘RQ-931-sonli “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun asosida ishlab chiqilgan ushbu Nizomning maqsadi “UzGasTrade” AJda aksiyadorlik jamiyat (keyingi o‘rinlarda Jamiyat)da manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish tartibini belgilaydi xamda Jamiyatda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va boshqarish masalalaridagi asosiy ichki hujjat hisoblanadi va barcha xodimlar tomonidan so‘zsiz rioya qilinishi shart.

2. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Nizom

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘RQ-931-sonli “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida qat’iy belgilangan qoida, tartib va tamoillardan iborat.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yuritishni, shuningdek sud ishini yuritish chog‘ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga oid boshqa qoidalar belgilanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchiligidida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi.

3. Asosiy tushunchalar

Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi — davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab

qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha maxsus bo‘linma (bundan buyon matnda maxsus bo‘linma deb yuritiladi) — davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmalari (va) yoki kadrlar bo‘linmalari;

shaxsiy manfaatdorlik — davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik;

yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

aloqador shaxslar — jamiyat xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo‘lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish — xodimlar tomonidan potensial yoki real manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi — xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

4. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari

Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

xolislik;

korrupsiyaga nisbatan murosasizlik.

5. Jamiyatda aloqador shaxslar

Quyidagi shaxslar Jamiyatda xodimiga aloqador shaxslar deb e'tirof etiladi:

Jamiyatda xodimining yaqin qarindoshlari;

Jamiyatda xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

Jamiyatda xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

6. Jamiyatda xodimining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'idagi huquq va majburiyatlar

Jamiyatda xodimi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'ida:

maxsus bo'linmaga maslahat so'rab murojaat etish;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etish huquqiga ega.

Jamiyat xodimi:

o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini (tashkilot rahbari — yuqori turuvchi rahbarni) yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi;

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo'linmaning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi shart.

Jamiyat xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

7. Jamiyat xodimiga aloqador shaxslarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'idagi huquq va majburiyatlar

Jamiyatning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Jamiyat bilan munosabatlarga kirishganda:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun maxsus bo'linmadan bepul maslahat olish;

Jamiyat manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Jamiyat xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Jamiyat bilan munosabatlarga kirishganda:

shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to‘ldirishi, unga bila turib yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritmasligi shart.

Jamiyat xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganligi ushbu Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonunda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

8. Jamiyat xodimining faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha cheklovlar

Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida Jamiyat xodimi:

xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog‘ida ma’lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo‘ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o‘rindoshlik bo‘yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta’sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarining o‘n foizigacha egalik qilish hollari mustasno;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Jamiyat nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda Jamiyat nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a’zosi bo‘lgan shaxs Jamiyatda xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a’zolidan chiqishi kerak;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Jamiyatda o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa;

o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas.

Jamiyat bilan mehnat sharhnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo‘shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o‘zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga

oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdar shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi.

Ushbu modda birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan cheklov faqat davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat maqsadli jamg‘armalarining xodimlariga, davlat muassasalarining va davlat unitar korxonalarining, o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisida ko‘rsatilgan cheklov davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonunning maqsadlarini nazarda tutgan holda mazkur moddada “nazorat” deganda davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining tegishli tashkilot faoliyatini shaxsan yoki o‘zining bo‘ysunuvidagi shaxs orqali tekshirish yoxud unga nisbatan qonunchilikda belgilangan har qanday imtiyozlarni (preferensiyalarni) qo‘llash yoki uni har qanday javobgarlikka tortish (javobgarlikka tortish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish) yoxud unga litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berish (xabarnomani qabul qilish) huquqi tushuniladi.

Jamiyat xodimi lavozim majburiyatlarining yoki xizmat vakolatlarining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar qo‘llanilishi mumkin.

2-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish

9. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq axborotni va materiallarni Jamiyatdan so‘rab oladi va o‘rganadi;

Jamiyat manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Jamiyat manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida o‘rganadi;

manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida

Jamiyatga taqdimnomalar kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da'vo kiritadi;

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrining, mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning hamda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;

Jamiyat uchun manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni e'lon qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararning o'rni to'liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalgalashiradi;

maxsus bo'linmalar xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirishni, ularda tegishli ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitishni tashkil etadi;

ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbazarlik haqida bayonnomani tuzadi va uni ko'rib chiqish uchun sudga yuboradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalgalashirishi mumkin.

10. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida:

xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o'zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o'zgartiradi yoki bekor qiladi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etadi;

odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi;

Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalarini tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralarini ko'radi;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining

tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo‘lgan ishonchini tiklash choralarini ko‘radi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11. Jamiyatda odob-axloq komissiyasining manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Jamiyat xodimi tomonidan ushbu nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Odob-axloq komissiyasi:

Jamiyat xodimi tomonidan ushbu nizomda belgilangan talablarga rioya etilishini ta‘minlash choralarini ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarligi (to‘g‘riliqi) haqidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

ushbu nizomda belgilangan talablarning Jamiyat xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar qilmagan, bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga taklif kiritadi.

Odob-axloq komissiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12. Maxsus bo‘linmaning (Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limining) manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Maxsus bo‘linma:

Jamiyat xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtiradi;

Jamiyat ushbu nizom talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazadi;

Jamiyat xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqadi, ularning natijalariga ko‘ra odob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;

Jamiyat xodimining manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi xabarları munosabati bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa beradi;

Jamiyatda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Jamiyatda ushbu nizom talablariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar uning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlaydi.

Maxsus bo‘linma qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir choralar

13. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish Jamiyatning xodimi tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat xodimiga aloqador shaxslar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish ularning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi orqali amalga oshiriladi.

14. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

 mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berayotgan Jamiyat xodimining familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, shuningdek jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

 Jamiyat xodimining manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelayotgan yaqin qarindoshining familiyasi, ismi, otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda) yoxud Jamiyat xodimiga aloqador shaxsning nomi va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

 mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborot.

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarни o‘z ichiga olishi, Jamiyat xodimining va (yoki) uning bevosita rahbarining (ayrim hollarda, uning o‘ribbosarining) o‘z qo‘li bilan qo‘ylgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

15. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani taqdim etish tartibi

Jamiyat xodimi quyidagi hollarda mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to‘ldirishi va o‘zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga — yuqori turuvchi rahbarga) yoki maxsus bo‘linmaga taqdim etishi shart, agar:

 yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo‘ysunuvidagi ishga qabul qilingan bo‘lsa (davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimga ishga qabul qilingan hollar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o‘ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo‘lsa;

 u o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo‘lsa;

 yaqin qarindoshi tekshiruv o‘tkazilayotgan obyektda (yuridik shaxsda) tekshiruv yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo‘lsa yoki mazkur tekshiruv obyekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo‘lsa;

boshqa har qanday mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolsa.

16. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqish tartibi

Jamiyatning rahbar xodimi hamda maxsus bo‘linmaning rahbari manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun mas’ul hisoblanadi.

Jamiyatning tarkibiy bo‘lima rahbari mavjud manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida ko‘rilgan choralar to‘g‘risida maxsus bo‘limaga bir ish kuni ichida axborot taqdim etishi shart.

Maxsus bo‘linma ko‘rilgan choralarning yetarligi (to‘g‘riliqi) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun axborotni uch ish kuni ichida odob-axloq komissiyasiga taqdim etadi.

17. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

Jamiyat xodimining lavozimi hamda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, shuningdek uning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

Jamiyat xodimi yaqin qarindoshlarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda), shuningdek ish joyi va lavozimi;

Jamiyat xodimi yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyador bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatining rasmiy nomi va uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

Jamiyat xodimining yaqin qarindoshi muassis (ishtirokchi), boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan yuridik shaxsning rasmiy nomi, shuningdek uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami.

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya uni to‘ldirgan Jamiyat xodimining o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

18. Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etish tartibi

Jamiyat xodimi shaxsga doir ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishi va har yili 15-yanvardan kechiktirmay maxsus bo‘linmaga taqdim etishi kerak.

Jamiyatga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek boshqa ishga o‘tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to‘ldirishi va taqdim etishi kerak.

Maxsus bo‘linma:

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiyani har yili 15-fevralgacha umumlashtiradi va tahlil qiladi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarning yetarligini (to‘g‘riliqini) ta’minalash uchun har yili 1-martga qadar odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi;

odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rish to‘g‘risida

Jamiyat xodimining bevosita rahbariga yoxud Jamiyatning yuqori turuvchi rahbariga taklif kiritadi.

Jamiyatning xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud Jamiyat xodimi boshqa ishga o'tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo'linma ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan ishlarni besh kunlik muddatda amalga oshiradi.

19. Jamiyat xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya

Jamiyat xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

Jamiyat xodimiga aloqador shaxs hisoblangan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsiy identifikatsiya raqami yoxud yuridik shaxsning nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

Jamiyat xodimining familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;

Jamiyat xodimi bilan qarindoshlik to'g'risidagi ma'lumotlar;

yuridik shaxsning Jamiyat xodimiga aloqadorligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya uni to'ldirgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining (ishonchli shaxsining) o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

20. Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash

Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi:

ushbu nizomning 17-moddasida nazarda tutilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyadan;

davlat xaridlari jarayonida olingan takliflardan, xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalaridan, tuzilgan shartnomalardan;

jismoniy va yuridik shaxslarning Jamiyat xodimining faoliyatidagi mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi murojaatlaridan yoki xabarlaridan;

tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari va yakuniy naf oluvchilari (benefitsiarlari) ro'yxatlaridan;

O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish modulidan;

"FHDYO Yagona elektron arxivii" axborot tizimidan;

"Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo apparat-dasturiy majmuidan;

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan;

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha kiritilgan taqdimnomadan.

Ushbu modda birinchi qismining beshinchi — to'qqizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan manbalardan ma'lumotlar olish maxsus bo'linma rahbarining so'rovi bo'yicha amalga oshiriladi.

Jamiyat xodimining ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirilgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va o‘rganish orqali aniqlanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumotlarni o‘rganish maxsus bo‘linma tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarini ko‘rib chiqish va tekshirish

21. Manfaatlar to‘qnashuviga oid hollarga nisbatan ko‘riladigan choralar

Manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi choralardan biri ko‘rilishi kerak:

o‘ziga nisbatan manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo‘ysunuvidagi Jamiat xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo‘ysunuviga o‘tkazish;

Jamiat xodimini manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o‘zini o‘zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

Jamiat xodimining lavozim majburiyatları yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko‘rib chiqish;

Jamiat xodimining Jamiatning manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

Jamiat xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta’minalash;

Jamiat xodimiga o‘zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to‘g‘risida takliflar taqdim etish;

xodim tomonidan o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Jamiatning manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

Jamiat xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarini ko‘rish mumkin bo‘limgan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o‘tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontraktni) umumiy asoslarda bekor qilish.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralar Jamiat xodimining roziligi bilan ko‘rilishi kerak.

Jamiat tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga doir choralarini ko‘rish chog‘ida biror-bir shaxslarga, guruhlarga yoki tashkilotlarga afzallik, ustunlik berishga yoxud Jamiat xodimlarini, shuningdek fuqarolarni kamsitishga yo‘l qo‘ymaydi.

Jamiat o‘z xodimi bilan o‘zaro kelishuvga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa choralarini ham ko‘rishi mumkin.

22. Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hujjatlarning maxfiyligini ta’minalash

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtiroy etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat

majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat xodimining faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish chog'ida shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

23. Jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risidagi murojaatlari va xabarlarini ko'rib chiqish

Jismoniy va yuridik shaxslarning xodimdagi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida Jamiyatga kelib tushgan har bir murojaati yoki xabari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi hamda tekshiriladi.

Tekshirish davomida aniqlangan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi bilan bog'liq hollar to'g'risidagi ma'lumotlar odob-axloq komissiyasi tomonidan maxsus bo'linma taqdim etganidan keyin o'n ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq komissiyasi Jamiyat boshqaruv raisiga manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha choralarни ko'rish yoxud xodimni tegishli javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritadi.

24. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotning hisobini yuritish

Jamiyatning komplayens-nazorati bo'limi tomonidan Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrini yuritadi.

Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga quyidagi asoslarga ko'ra kiritiladi:

Jamiyatga ishga qabul qilishda nomzod tomonidan taqdim etilgan deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

Jamiyatning xodimi boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda, o'zidagi mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni xabar qilganda;

Jamiyatning xodimi tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har yilgi deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

majud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnoma taqdim etilganda;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilganda;

rasmiy elektron ma'lumotlar bazalari orqali davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

kelib tushgan murojaatga yoki xabarga asosan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi tasdiqlanganda;

qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladigan xizmat hamda boshqa turdag'i tekshiruvlar natijasida Jamiyat xodimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda.

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan tashqari quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

majud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish yuzasidan ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar;

manfaatlar to'qnashuvini oshkor etish chog'ida bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan Jamiyatning xodimiga nisbatan ko'rilgan ta'sir choralarini to'g'risidagi ma'lumotlar.

Maxsus bo‘linma aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarining hisobi o‘z vaqtida va to‘liq yuritilishi uchun javobgardir.

25. Manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ko‘rilgan choralarni ko‘rib chiqish

Jamiyatning odob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlari to‘g‘risida har yarim yilda xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarning yetarliligini (to‘g‘riliгини) ko‘rib chiqadi.

Jamiyatning odob-axloq komissiyasi aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini maxsus bo‘linma bilan birgalikda tahlil qiladi va Jamiyatning xodimlari o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

26. Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qarorlar qabul qilish yoki bitimlar tuzish

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu qaror qabul qilinganligi yoki bitim tuzilganligi natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunda haqiqiy emas deb topilgan bunday bitimning ijrosi bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan Jamiyatga yetkazilgan zarar Jamiyat va uning tizim tashkilotlarining aybdor xodimlaridan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

27. Jamiyatning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlari ustidan shikoyat qilish

Jamiyatning xodimi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan Jamiyat tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi tashkilotga, maxsus vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

28. Nizolarni hal etish

Jamiyatning faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

30. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik

Jamiyatning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik,—

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa,—

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Jamiyatning mansabdor shaxsiga ma’lum bo‘lib qolgan, manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko‘rmaslik,—

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa,—

bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbazarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo‘lsa,—

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi»;

«Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu bitimni tuzish natijasida olingan foyda bitim bo‘yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to‘g‘risida talab qo‘yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o‘tkaziladi. Bunday bitimni ijro etish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rni manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi»;

31. Ushbu Nizomning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash

“UzGasTrade” AJ Kadrlar boshqarmasi, Komplayens-nazorat bo‘limi shuningdek barcha Boshqarma, bo‘lim boshliqlari ushbu Nizomning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati jamoa o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlaydi.

“UzGasTrade” AJning
2025-yil “25 August
19-um-son buyrug‘iga 2-ilova

**“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga
rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi komissiyasi
to‘g‘risida
Nizom**

1-bob. Umumiylar qoidalar

2-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish

4-bob. Jamiyat xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarini ko‘rish

5-bob. Jamiyat xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish tartibi

Ilova. Komissiya faoliyatini tashkil qilish va davlat xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish sxemasi

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom davlat organlari va tashkilotlarida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya “UzGasTrade” AJning xodimlari (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat xodimlari) tomonidan Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunga rioya etilishini nazorat qilish, ularning qonunda belgilangan normalariga zid bo‘lgan xattiharakatlarni sodir etishlarini oldini olish va qoidalariga rioya etish bilan bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqish maqsadida tuziladi.

3. Komissiya faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi 931-tonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

4. Komissiya tayinlangan komissiya raisi, kotibi va a’zolaridan iborat bo‘lib, umumiylar soni besh nafardan kam bo‘lmasligi va toq sonda bo‘lishi lozim.

Komissiya tarkibiga tajribali, mehnat jamoasida obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan Jamiat xodimlari kiritiladi.

Komissiya tarkibi “UzGasTrade” AJ Boshqaruv raisi qarori bilan tasdiqlanadi va doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

Komissiya tarkibiga Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi ehtimolini nazarda tutgan holda o‘zgartirish kiritiladi.

2-BOB. KOMISSIYANING ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

5. Jamiat xodimi tomonidan Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini ta’minlash choralarini ko‘radi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riliqi) haqidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

qonunda belgilangan talablarning jamiat xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar qilmagan, bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida jamiat rahbariga taklif kiritadi.

Komissiya qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6. Komissiya davlat organi va Jamiatning tarkibiy bo‘linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslari va jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi.

3-BOB. KOMISSIYA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

7. Komissiya majlislari zaruriyatga qarab o‘tkaziladi.

Komissiya majlislari ochiq tarzda o‘tkaziladi. Zarur bo‘lgan hollarda Komissiya yopiq majlis o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

8. Komissiya majlisini Komissiya raisi, u yo‘qligida esa, uning topshirig‘iga binoan Komissiya a’zolaridan biri olib boradi. Komissiya majlisida bayonnomma yuritiladi, u raislik qiluvchi va Komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

9. Komissiya majlislari, agar ularda Komissiya a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

10. Komissiyaning navbatdagi majlisi to‘g‘risida uning raisi Komissiya a’zolariga yozma ravishda, qoida tariqasida, kamida ikki kun oldin xabar qiladi, shuningdek, majlisning boshqa ishtirokchilarini oldindan xabardor etadi.

11. Komissiyaning qarorlari majlisda qatnashgan Komissiya a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan hollarda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

Komissiyaning qarorlari Komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

12. Komissiya raisi:

Komissiya ishini tashkil etadi;

Komissiya majlislarini chaqiradi va o‘tkazadi;

Komissiya a’zolariga topshiriqlar beradi;

Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mansabdor shaxslar va jamoatchilik bilan bo‘lgan munosabatlarda Komissiya nomidan ish yuritadi;

Komissiya majlislarida Komissiya faoliyati to‘g‘risidagi axborot bilan so‘zga chiqadi;

Har yili Jamiyat boshqaruvi raisiga Komissiya faoliyati to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

13. Komissiya kotibi:

Komissiyaning faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta’minalash masalalarini hal qiladi;

Komissiyaning navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minalaydi, davlat organi va tashkiloti xodimlaridan zarur hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rab oladi;

Kun tartibiga muvofiq Komissiya majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi;

Komissiyaning a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni Komissiya majlisi o‘tkaziladigan joy, sana va vaqt hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta’minalaydi.

14. Komissiya a’zosi:

Komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladigan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berishga;

Komissiyaning ko‘rib chiqishi uchun masalalar va takliflar kiritishga;

Qarorlar tayyorlanishida, muhokamasida, qabul qilinishida, shuningdek ularning amalga oshirilishini tashkil etishda hamda bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etishga;

Ko‘rib chiqilayotgan masalaga doir hujjatlar, ma’lumotnomalar va boshqa zarur axborot bilan tanishishga;

Komissiya qaroriga rozi bo‘lmagan taqdirda o‘z nuqtayi nazarini bayon etishga haqli.

15. Komissiyasi a’zosi Komissiya majlisida hozir bo‘lishi va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.

Komissiya a’zosi Komissiya majlisida hozir bo‘lish imkonni bo‘lmaganda Komissiya raisini oldindan xabardor etishi lozim.

16. Komissiya majlisida ko‘rilayotgan masalalar Komissiya raisi, kotibi va a’zolariga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan taqdirda o‘zini o‘zi rad qilishi shart.

**4-BOB. JAMIYAT XODIMLARI TOMONIDAN
MANFAATLAR TO‘QNASHUVI QOIDALARI BUZILISHINING
OLDINI OLISH (PROFILAKTIKA)
CHORALARINI KO‘RISH**

17. Komissiya “UzGasTrade” AJ Personalni boshqarish bo‘limi, Komplayens-nazorat bo‘limi bilan hamkorlikda muntazam ravishda Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalariга rioya etilishi va ularning buzilishi oldini olishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi profilaktik kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

Jamiyat xodimlarida yuksak kasbiy madaniyatni, korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo‘lish, jamoada sog‘lom ma’naviy muhit va ishchan kayfiyatni shakllantiradi;

Jamiyat xodimlari “halollik vaksinasi” bilan emlash, ya’ni halollikni ularning ongiga singdirish, ma’rifat orqali ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantiradi;

Jamiyat miqyosida huquq tartibot idoralari ma’sul xodimlarini, taniqli ziyorilar, ijodkorlar, ma’naviyat va ma’rifat sohasining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari, o‘z sohasida yuksak natijalarga erishgan mehnat faxriylarini jalb qilgan holda, uchrashuvlar tashkil qilib boradi;

Jamiyat xodimlarining iqtisodiy bilimlarini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini, intellektual va ma’naviy rivojlanishini oshirish maqsadida iqtisodiy va huquqiy o‘qishlar tashkil etadi;

Yangi ishga qabul qilingan xodimlarni manfaatlar to‘qnashuvini qoidalari qat’iy rioya qilish borasida stajirovkadan o‘tkazish va ular bilan profilaktik suhbatlar tashkil qiladi;

Jamiyat xodimlarini malaka oshirish kurslariga, xalqaro seminarlar, konferensiylar va shu kabi boshqa tadbirlarga yuborish, ular tomonidan o‘z kasbiy darajasi va axloqiy sifatlarini mustaqil oshirishlari uchun shart-sharoit yaratib beradi.

18. Komissiya Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini qoidalari buzilishining oldini olish (profilaktika) borasidagi o‘z faoliyatini Komissiya tomonidan tasdiqlanadigan choraklik ish rejalarini asosida olib boradi.

19. Jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalarning buzilishining oldini olish (profilaktika) choralarining natijadorligi yil yakunlari bo‘yicha o‘tkaziladigan Komissiya yig‘ilishida muhokama qilinadi.

**5-BOB. JAMIYAT XODIMLARI TOMONIDAN
MANFAATLAR TO‘QNASHUVI QOIDALARINING BUZILISHI
BILAN BOG‘LIQ MASALALARNI KO‘RIB
CHIQISH TARTIBI**

20. Komissiya jamiyat xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvি qoidalaring buzilishlari bilan bog‘liq masalalarni:

“UzGasTrade” AJ Boshqaruv raisining topshirig‘iga ko‘ra; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murojaatiga asosan; Jamiyat xodimlari, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga binoan;

o‘z tashabbusi bilan ko‘rib chiqadi.

21. Komissiya majlisiga, haqiqiy holatlarni aniqlash va xolisona qaror qabul qilish maqsadida, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilayotgan Jamiyat xodimi, zarur bo‘lgan hollarda esa, murojaat qiluvchi va boshqa shaxslar taklif etiladi. Komissiya majlisining vaqt va joyi haqida tegishli ravishda xabardor etilgan shaxslarning kelmasligi murojaatni ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

22. Komissiya majlisida:

kun tartibidagi masala o‘qib eshittiriladi;

Jamiyat boshqaruvi raisining topshirig‘i yoki Jamiyat xodimi tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalarning buzilganligi to‘g‘risidagi murojaat o‘qib eshittiriladi;

manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalaringa rioya etmaganlikda ayblanayotgan Jamiyat xodimi va murojaatchilarning tushuntirishlari eshitiladi.

23. Jamiyat xodimi o‘zining huquqi, sha’ni va qadr-qimmatiga, ishchanlik obro‘siga daxl qiladigan murojaat bo‘yicha amaldagi qonun hujjalari muvofiq o‘zini himoya qilishga, Komissiyaga zarur materiallar hamda boshqa axborotlarni taqdim etishga haqli.

24. Majlis yakuni bo‘yicha Komissiya Jamiyat xodimining harakatlarida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalarning buzilishi faktining mavjudligi yoxud mavjud emasligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

25. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalarning buzilganligi fakti aniqlangan taqdirda Komissiya tomonidan Jamiyat xodimlariga quyidagi axloqiy ta’sir choralar qo‘llaniladi:

Ogohlantirish;

Jamiyatning kollegial yig‘ilishlarida tanbeh berish;

Ma’muriy yoki boshqa qonuniy jazo qo‘llash.

26. Komissiya Jamiyat xodimiga nisbatan intizomiy ta’sir chorasi qo‘llash uchun Jamiyat Boshqaruv raisiga taqdimnomalar kiritishi mumkin.

27. Komissiya tomonidan quyidagi murojaatlar ko‘rib chiqilmaydi:

Komissiyada oldin ko‘rib chiqilgan murojaat va aynan shu mazmundagi takror murojaatlar;

anonim murojaatlar;

qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo‘lmagan murojaatlar.

28. Komissiya qabul qilingan qaror haqida murojaat qiluvchiga, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilgan Jamiyat xodimiga yozma ravishda ma’lum qiladi.

29. Komissiya manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qoidalari Jamiyat ijro apparati yoki tizim korxonalari rahbarlari tomonidan buzilgan taqdirda ularga nisbatan tegishli chora ko‘rish masalasi yuzasidan takliflarni yuqori turuvchi davlat organi va Jamiyat Boshqaruvi raisiga yuboradi.

30. Murojaat qiluvchi, o‘ziga nisbatan masala ko‘rib chiqilgan Jamiyat xodimlari Komissiyaning qarori ustidan Jamiyat Boshqaruv raisiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

“UzGasTrade” AJning
2025 yil “25” August
19-um-son buyrug‘iga 3-ilova

**“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga
rioya etilishi ustidan nazorat olib boruvchi komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi:

R.Tulyaganov Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

B.Nurmatov Personalni boshqarish bo‘lim boshlig‘i, Komissiya
raisi o‘rinbosari

Komissiya a’zolari:

S.Mirzamoydinov Komplayens-nazorat bo‘lim boshlig‘i

U.To‘ychiyev Yuridik bo‘lim bosh yuriskonsult

A.Niyazmetov Ijro nazorati bo‘lim boshlig‘i

S.To‘ychiyev Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi

A.Niyazmetov Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishslash bo‘limi
boshlig‘i

N.Qodirqulov Personalni boshqarish bo‘lim bosh mutaxassisi,
komissiya kotibi

Izoh: Komissiya kotibi vazifasini bajaruvchi personal bo‘limining mas’ul xodimi kun tartibidagi masalalarni ko‘rib chiqishda ovoz berish huquqisiz ishda qatnashadi. Ish yuritish, arizalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, Komissiya hujjalarni saqlash, yig‘ilishlarini tayyorlash ishlarini olib boradi.

Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda Komissiya tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli vazifalar yuklangan shaxslar kiritiladi.